

**О‘ЗBEKISTONDA IQTISODIY SIYOSAT, SANOAT SOHASIDA
AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR VA UNING OQIBATLARI
(XX ASRNING 30-50 YILLAR)**

Abbos Qurbonov,
katta o‘qituvchi,
Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti, Qarshi
E-mail: qurbonov@gmail.com

Аннотация. О‘zbekistonda 30-50-yillarda ham sanoat qurilishi sur‘atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiya davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotida mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvi yanada kuchaytirildi.

Калит so‘zlar: О‘zbekiston SSR, to‘qimachilik, mashinasozlik, energetika, o‘gir sanoat, fabrika, kimyo sanoati, zavod, infrastruktura, fabrika.

Аннотация. Даже в 1930- 1950 годы в Узбекистане сохранялась тенденция необоснованного ускорения темпов промышленного строительства. В экономике республики еще больше усилилась специализация страны как основной хлопковой базы.

Ключевые слова: Узбекская ССР, текстиль, машиностроение, energetika, обрабатывающая промышленность, фабрика, химическая промышленность, завод, инфраструктура, фабрика.

Abstract. Even in the 1930s, the trend of unreasonably accelerating the pace of industrial construction continued in Uzbekistan. In the economy of the republic, the specialization of the country as the main cotton base was further strengthened.

Key words: Uzbekistan SSR, textile, machinery, energy, manufacturing, factory, chemical industry, factory, infrastructure, factory.

Мавзунинг dolzarbligi:

О‘zbekiston Respublikasining yirik viloyatlaridan biri bo‘lgan Qashqadaryoda istiqloл yillarida yangi-yangi sanoat korxonalari bunyod etildi. Sanoat tarmog‘i

kengayib, xalq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatda mehnat qilayotgan yuz minglab malakali muhandislar va ishchi-xizmatchilar bunyodkor va yaratuvchilik mehnatiga bag'ishlangan tarixiy asarlar yozish, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vaholanki bu mavzu keng yoritishga arxiv va boshqa manbalarda yetarli darajada materiallar mavjud.

Qarshi tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi gazmoldan tortib tikuv mashinalarigacha Ivanova, Xerson, Shuya, Barnaul kabi shaharlardan olardi. Ammo Ivanova viloyatidagi barcha to'qimachilik fabrikalari O'zbekiston paxta tolasi bilan ishlayotganligina qaramasdan ular gazmolni Rossiya xududidan O'zbekistonga chiqarganligi uchun mahsulot narxiga 5 foiz miqdorda ustama 30 foiz miqdoda soliq qo'shdilar. Xuddi shuningdek, gazmolni tashishga ketgan xarajat ham korxonaga hisobidan todanadi.

Shunga qaramasdan fabrika jamoasining fidokorona mehnatlari tufayli 1991 yilda 69526 ming so'mlik tovar mahsuloti tayyorlandi (reja 105,8 foiz), 59672 ming so'mlik mahsulot shartnoma bo'yicha iste'molchilarga yetkazib berildi. Yalpi ko'ylak ishlab chiqarish 93,2 foiz, ya'ni 4857 ming donaga, shu jumladan, bolalar ko'ylaklar ishlab chiqarish 100,8 foiz, ya'ni 2508 ming donaga uddalandi². Yillik rejadagi nisbatan 352 ming dona o'tkan yildagiga nisbatan esa 319 ming dona yalpi ko'ylak mahsulotlari kam ishlab chiqarildi. 6523 ming so'm o'rniga 5396 ming so'mlik foyda olindi (reja 82,7 foiz). Tovar mahsulotining tannarxi rejadagi 59189 ming so'm o'rniga 55930 ming so'mni, 1 so'mga qilingan harakat esa 90 tiyin o'rniga 92,07 tiyinni tashkil qiladi.

1991 yil "Hujum" badiiy buyumlar fabrikasida 1418 dona sanam, 1951 dona chizma qo'lga to'qilgan do'ppilari, 116345dona mashinada tikilgan Iraqi do'ppi, 1205 dona bolalar (236 foiz), 894 dona ayollar (100,4 foiz) nimchalari, 26277 dona xalat, 19,4 ming kvadrat metr gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarildi. Tikuvchilik buyumlari ishlab chiqarish 104,1 foiz, ya'ni 7139 ming so'mga, yalpi mahsulot ishlab chiqarish esa 113,5 foiz ya'ni 12923 ming so'mga uddalandi. Fabrikada 1320 kishi mehnat qildi. Har bir kishi hisobiga 10380 so'mlik mahsulot

ishlab chiqarilardi. Shu yil fabrikaning 1030 chevar xotin -qizlaridan iborat 10 ta brigadasi o'z uylarida mehnat qilib, rejadagi 4151,3 ming so'mlik o'rniga 4350,3 ming mahsulot ishlab chiqardilar.

700 dan ziyod kishi mehnat qilayotgan Nishon paxta tozalash zavodida 1991 yil samarali yakunlandi. Shu yili zavod jamoasi rejaga muvofiq 95 mln. 820 ming so'mlik xom ashyo ishlab chiqarishi kerak edi. Amalda esa 115 mln. 264 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, iste'molchilarga jo'natildi³. Shuningdek, Nishonlik paxta tozalovchilar paxta tozalash zavodlaridagi chiqitlardan foydalanish mumkinligini Yaponiya sanoatchilari tajribasi asosida o'rganishdi.

Bu tajribani ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida 1991 yil Toshkent to'qimachilik instituti bilan Nishon paxta tozalash zavodi hamkorlikda o'lik paxtani qayta ishlovchi fabrika qurilish ishlari boshlab yuborildi.

G'uzor paxta tozalash zavodi mehnatkashlari 1991 yilda unumli mehnat qilib, quvonchli natijalarga erishdi. Shu yili zavodda 13039 tonna tola ishlab chiqarildi. Yillik rejaga nisbatan 139 tonna, tola ko'p ishlab chiqarildi. Zavodda 226 kishi mehnat qilib 454046 so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi¹.

Voxaning Usmon Yusupov (hozirgi mirishkor) tumanidagi Jeynov paxta tozalash zavodida tola ajratuvchi va paxtani iflosliklardan tozalovchi seh kengaytirilib, unga yangidan 4 ta "CHX-5" mashinalari montaj qilindi. Bu yangi mashinalar ish unumdorligini bir yarim baravariga oshirdi. Chunki eski "RX-01" mashinasining tozalash darajasi 25% bo'lsa, bu ko'rsatgich "CHX-5" mashinasida 85% ni tashkil etdi. Mana shunday tadbirlar sharofati bilan zavodda tola ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1991 yilga kelib bu ko'rsatgich 900 tonnaga yetdi. Jeynov paxta tozalash zavodidan 1991 yilda to'qimachilik korxonalarini 6 ming tonnaga yaqin sifatli paxta tolasini sotib oldilar.

Bu yuqori ko'rsatgichlarga erishishdan zavodning 185 kishilik jamoasi orasida Islom Toshev boshliq ishlab chiqarish brigadasi a'zolarining xizmati katta bo'ldi. Mazkur brigada a'zolari kunlik va oylik rejalarini 12-130% ga uddaladilar. Ayniqsa, Jumaboy Xamroyev, Arslonqul Ergashev, Chori Cho'liyev, Soboxat Safarova,

Ravshan Choriyev, Yomg'irboy Abdullayev singari moxir ishchilar o'z mehnat tashabbuslari bilan boshqalarga ibrat bo'ldilar.

Qashqadaryo viloyatidagi 12 ta paxta tozalash zavodlarida 1991 yilda bir kunda 2000 tonnadan ziyodroq paxta qayta ishlanib, 650-700 tonna tola, 1200 tonnadan ko'proq chigit ishlab chiqarildi. Umuman viloyatda ishlab chiqarilayotgan yengil sanoat maxsulotlarining 73% i paxta tozalash sanoati korxonalariga xissasiga to'g'ri keldi.

1990 yil Yakkabog'dan maxsulotlari korxonasida bir kunda 100 tonna yem tayyorlash quvvatiga ega bo'lgan yem tayyorlash sexi ishga tushirildi. Yangi sehning ishga tushishi natijasida korxonaga kombinatga aylandi va yiliga 40 ming tonna un bilan birga 30 ming tonna miqdorida sifatli chorvabop omuxta yem ishlab chiqara boshladi. Yirik rejalar ortig'i bilan uddalanishi natijasida kombinat 1990 yil 1 mln. 338 ming so'mga yetdi.

Bozor iqtisodiyoti talablardan kelib chiqib yakkabog'dan maxsulotlar kombinati jamoasi ishbiarmonlari 1991 yil aprel oyida kombinat qoshida makaron sehini ishga tushirdilar. Bu bilan Qashqadaryo viloyati sanoatida birinchi marta makaron maxsulotlari tayyorlash yo'liga qo'yildi. Yangi makaron sehida dastlab 14 kishi mehnat qilib, ular bir smenada 400 kilogrammgacha maxsulot tayyorladilar. Bu ko'rsatgichni keyin 5 tonnaga yetkazish maqsadida yangi liniya qurildi.

Shahrisabz vino-aroq zavodining 345 kishilik jamoasi tomonidan har yili bu yerda "Kesh", "Oqsaroy", "4404zbekiston", "Musqat", "Shahrisabz" singari 15 xildan ortiq maxsulot tayyorlanmoqda.

1991 yil ushbu zavodda 1 mln. dikolitr sharob (vino), 700 ming dikolitr aroq ishlab chiqarilib, bu sohadagi yillik rejalar oshirib uddalandi va 18 mln. so'm sof foyda olindi. Shuningdek, zavodda tadbirkorlik bilan, uzoqni o'ylab xorij texnologiyasini ishlab chiqarishga keng joriy etish va bu bilan maxsulot turini ko'paytirishga, sifatini yaxshilashga katta e'tibor berildi. Jumladan, 950 ming so'mga Shvetsiyaning "Alfa-Laval" firmasidan shinni ishlab chiqaradigan uskunalar sotib olib o'rnatildi va 1991 yilda vino-aroq maxsulotlaridan tashqari 200 tonna olma va 300 tonna uzum shinnisi

tayyorlandi. Shinning katta qismi Chexoslavakiyaga sotildi va o4miga 140 tonna spirt olindi. Chunki Ukraina, Rossiya zavodga spirt keskin kamaytirgan edi.

Qarshi sut kombinatida 1992 yilda 229 mln 774 ming so‘mlik sut va sut maxsulotlari ishlab chiqarildi. Kombinat jamoasining fidokorona mehnatlari tufayli 1992 yil savdo do‘konlariga 1580 tonna sariyog4, 11744 tonna sut, qatiq maxsulotlari, 150 tonna brinza, 23 tn pishloq, 862 tn yog4siz sut maxsulotlari yetkazib berildi va bu soxadagi rejalar oshirib uddalandi. Biroq bozor iqtisodiga oddish munosabati bilan sut-qatiq maxsulotlarining ham narxi oshganligi sababli kombinatda ishlab chiqarilgan maxsulotlarning ayrimlari savdo dodconlarida ba’zan turib qoldi.

1995 yilda Qashqadaryo viloyatida davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalar soni 2557 tani tashkil etdi. Ulaming 187tasi yoki 80,4 % xususiy va 313 tasi yoki 12,2 % mulkchilikning jamoa va boshqa turlariga aylantirildi shu yili viloyat iqtisodiyotiga nodavlat sektori ulushi 90 %ni tashkil etdi. Ularda jami mehnat qiluvchilarning 64 % band boTdi hamsda ular tomonidan jami ish turlari va hizmatlaming 66 % ga yaqini bajarildi.

Qarshi shahri - viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi boTib, u Qarshi vohasining markazida, Qashqadaryo daryosining qirg‘og‘ida, xalqaro temir yoT va avtomobel yo‘Harming kesishuv joyida joylashgan.

Shaharda Qarshini Moskva, Toshkent va Andijon shaharlari bilan bogTovchi aeroport movjud. Qarshgi - Toshkent, Qarshi - Samarqand, Qarshi- Buxoro yunalishlari bo‘yicha shuningdek, tuman markazlariga doimiy yo‘nalishli taksi va avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan.

Qarshi shahrida 62 ta mahalla mavjud bo‘lib, bu yerda istiqomad qiluvchi 227,7 ming kishidan mehnatga layoqatli axoli soni 133,0 ming kishini tashkil etadi. Shuningdek shaharda 45 ta o‘rta umumta’lim maktabi, 43 ta bolalar bog‘chasi, 15 ta kollejd, 3 ta oliy o‘quv yurti va 5 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, viloyat markazi boTgan shaharda mutaxassis - kadrlar tayyorlashaga katta e’tibor qaratilmoqda.

Tumanning sanoat saloxiyati bitta yirik korxonaga "O'z paxtasanoat" birlashmasi negizidagi «Paxta tozalash» OAJ va ol-tita kichik korxonaga bilan isroda etilgan bo'lib, ular faoliyatining asosiy yo'nalishiga paxta tolasi, shuningdek, tomat pastasi, non maxsulotlari, tikuvchilik maxsulotlari kabilar kiradi.

Ayni paytda tumanda kichik biznes korxonalarini soni 4605 taga yetib, o'zgan yilning shu davriga nisbatan 11,8 % ga o'sdi. Kichik biznes korxonalariga 508 mln so'm kredit mablag'dari berildi. Maxalliy budjetga olti mlrd 217 mln so'm mablag' tushirilib, o'zgan yilga nisbatan 947,4 mln so'mga ko'paydi.

2007 yilgi xisobot davrida tuman-da yalpi ichki maxsulot ishlab chikarish hajmi 9,1 foizga oshirildi. Sanoat maxsulotlari 32,6 mlrd so'mni, xalk iste'mol mollari ishlab chikarish karyib 1,5 mlrd so'mni, kishlok xo'jalik maxsulotlari ishlab chikarish 71,7 mlrd so'mni, eksport bo'yicha tashki savdo aylanmasi 20,0 mln AKSH dollarini tashkilkildi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdosotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

Lekin, shu bilan birga, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chikarish tarmoqlarini tashkil etishda innovatsion va nanotexnologiyalar, formakalogiya va farmatseftika, axborot kommunikatsiya tizimi, beotexnologiya, miqobil enegitika turlaridan foydalanish sohasida muxtasar aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berish zarur zero kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustaxkam tayanchi bodishi shart.

Xullas, tadbirkor erkin faoliyat yuritishi uchun barcha huquqiy asoslari yaratib berilgan. Faqat qabul qilingan qonun hujjatlarini mahalliy xokimiyat va boshqaruv idoralari tomonidan joylarda to'g'ri qodlay olish talab qilinadi. Bu qonun hujjatlarining samaradorligini oshiradi, va qonunlarimiz ijrosini ta'minlashning eng muhim va asosiy sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim” [1, 134].

Sanoat kadrlari tarixi bo‘yicha bu davrda yaratilgan F.Oripovning “O‘zbek ishchi kadrlarning tashkil topish tarixidan” monografiyasi mavzu tarixshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodlarining tashkil topishi, faoliyat yuritishi jarayonlari tarixiy va etnografik materiallari asosida bayon etiladi. Monografiyada sanoat kadrlari tarixi tarixshunosligi yuzasidan ham ba’zi fikrlar berib o‘tilib, G.A. Xaratov, T.S.Melnikova, M.Karanov, Sh.N. Ulmasboyev, T.A. Shister, K.L.Zadixinaning ishlari tahlil etiladi. O‘zbekistonda ham ishchi-kadrlar masalasini maxsus mavzu sifatida o‘rganishga 70-80-yillaridan e’tibor kuchaya boshladi. L.V.Gentshke o‘z monografiyasida 1926-1932-yillarda O‘zbekistonda ishchilar toifasining shakllanishida partiya faoliyatini o‘rganib, asosiy e’tiborini sanoat kadrlari masalasi yuzasidan qabul qilingan turli mazmundagi hujjatlar, anjumanlarda bu muammoning muhokamasini tarixiy ma’lumotlarga tayangan holda umumlashtiradi[2, 67].

A.T.Dexkanov, R.X.Zuxurov va X.A.Amanovning tadqiqotlarida esa O‘zbekistonda ishchi va muhandis-texnik xodimlar tayyorlashning shakl hamda usullari o‘rganiladi. 1920-1938-yillarda O‘zbekistonda ishchilar tayyorlash bilim yurtlari hamda faoliyati, ular tomonidan tayyorlangan kadrlar masalasiga doir ma’lumotlar A.T.Dexkanov tadqiqotida batafsil yoritib beriladi [3, 205].

X.R.Zuxurov O‘zbekistonda 1917-1937-yillarda o‘rta maxsus ta’lim sohasini tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishga harakat qiladi. A.K.Amanov esa O‘zbekistonda sanoat sohasi yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini asoslashga urinadi[4, 48].

Sovet davri sanoat sohasini kadrlar bilan taminlash masalasi hukmron kommunistik partiya manfaatlariga muvofiq amalga oshirilib, bu jarayon ziddiyatli

xususiyatga ega bo'ldi. Mamlakat miqyosida industrlashtirish sur'atining yuqoriligi ishchi va injener texnik xodimlarining son jihatidan yil davomida ko'payib borishiga imkon yaratdi. 1922-yil O'zbekistonda sanoat sohasida 7555 nafar ishchi faoliyat olib borgan bo'lsa, 1939-yilga kelib ular soni 122,2 ming nafarga yetdi. Ishchilarning miqdor jihatidan o'sishi, uning sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sanoat korxonalarini barpo etish, kadrlar siyosatida rivojlantirishning ekstensiv yo'li tanlanib, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishda mintaqaviy xususiyatlar hisobga olinmadi. Ishchilar safini to'ldirishning asosiy manbalari ishsizlar, dehqonlar, uy bekalari hamda markaziy hududlardan yuborilgan aholi bo'ldi. Sanoat korxonalarining ko'pchiligi o'z faoliyatini to'xtatdi. Sovet davlati hokimiyatining dastlabki yillarida sanoat sohasi kadrlarini tayyorlash masalasi eng muammoli vazifalardan biri hisoblandi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarni o'zlashtirish bilan bog'liq sanoat korxonalarini soni ortib borishi natijasida ularni kadrlar bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelindi. Ayniqsa, kadrlar orasida mahalliy millat vakillari kamchilik edi. Bu esa Rossiyadan sanoat kadrlarining O'rta Osiyo sanoat korxonalariga oqib kelishiga keng yo'l ochdi. Muhandis-texnik ziyolilar orasida mahalliy millat vakillari bor yo'g'i 1 foizni tashkil etdi [5, 103].

Malakali ishchilar, texnik xodimlar tayyorlash uchun yetarli o'quv muassasalari mavjud emas edi. Malakali ishchi kadrlar tayyorlash uchun FZU (fabrika – zavod uchenichestva, fabrika zavod qoshidagi ishchilari uchun maktab)lar tashkil etila boshlandi. Malakali ishchilar ikki yo'nalishda, ya'ni FZU va hunar-texnika maktablari ko'rinishida tashkil qilindi. FZUlarda sanoatning deyarli barcha yo'nalishlari uchun ishchi kadrlar tayyorlansa, hunar-texnika maktablarida sanoatning biror trest yoki korxonasi uchun kadrlar tayyorlandi.

1923-yilda Turkistonda 11 ta hunar-texnika maktablari bo'lib, ularda 865 ta o'quvchi tahsil oldi. Shu yili o'lkada 19 ta hunar texnika kurslarida 1379 nafar tinglovchi qatnashdi. Texnikumlarda 827 nafar kishi o'qidi [6, 170].

1926-yil O'zbekistonda 10 fabrika-zavod ta'limi maktabida 738 nafar o'quvchi, 3 ta hunar-texnika maktabida 176 nafar kishi o'qidi. 1925-1926-yilda hunar-texnika

ta'limi uchun O'zbekistonda 1 mln 230 ming rubl mablag' ajratildi. Ammo bu turdagi ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi nochor bo'lib, o'quv xonalari yaxshi jihozlanmadi. Ularda pedagog kadrlar yetishmadi.

Fabrika-zavod ta'limi maktablarida ixtisosli sanoat kadrlari tayyorlashga harakat qilindi. Masalan, Farg'ona ipak fabrikasi huzuridagi FZU maktabida 289 nafar bola, Samarqand paxta sanoatida FZUsida 661 nafar kishi tayyorlandi. Farg'ona vodiysida asosan paxta sanoati, ipakchilik va to'qimachilik sanoati korxonalarini uchun kadrlar tayyorlaydigan FZUlar tashkil etildi. Shuningdek, Buxoro ipak-yigiruv fabrikasi huzurida 1929-yil dekabrda ham 6 oylik FZU maktabi ochildi.

Buxoro, Andijonda 120 kishiga mo'ljallangan ishchi universitetlari tashkil etilib, ularda ijtimoiy-iqtisodiy, texnika va boshqa bo'limlar tuzildi. Bu turdagi universitetlar Toshkentda 320 nafar kishi, Qo'qonda 200 nafar kishi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida esa 40 nafar kishi uchun mo'ljallab ochildi. "Tashselmash" zavodida 1928 – 1929-yillarda ishchi tayyorlash va uning malakasini oshirish uchun kurs tashkil etilib, kursga 500 nafar ishchi jalb etildi. 1931-yili bunday kurslarda 925 nafar ishchi o'qidi[7, 8]. Ularning faqat 30 foiz o'zbek ishchilarini tashkil qildi. 1931-yil mazkur zavodda 20 ta texnika to'garagi tashkil qilinib, bunga 25 nafar ishchi ishtirok etdi. Ishchilar orasida "Hujum" harakati munosabati bilan ayollar salmog'i oshib bordi va ularning o'qitish borasida ham ba'zi ishlar amalga oshirildi. Ayollar asosan tikuvchilik, to'quvchilik, oziq-ovqat, pillakashlik sanoat korxonalarida faoliyat olib bordi.

Tikuvchi ayollarni tayyorlash maktabi 1926-yil Toshkent shahrida ochildi. 1928-1929-yillarda bu maktabda 47 nafar o'quvchi ta'lim olib, ularning 57 foizini o'zbek ayollari tashkil etdi. Umuman FZUlarda ayollar salmog'i ham oshirib borildi. Masalan, 1928-yil FZUlarda ayollar 28 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1932-yili 32 foizni tashkil etdi. Sanoat korxonalarini yiriklashib bordi. 1932-yili O'zbekistonda jami ishchilarning 54,7 foizi yirik korxonalarda faoliyat olib bordi. 1927 – 1928-yillarda bu ko'rsatkich 19,8 foiz edi[8, 4].

Sanoat korxonalarining texnik jihatdan yangilanishi, ishchilar malakasini doimiy oshirib borishini talab qildi. Shunga muvofiq fabrika va zavodlarda texnik ta'lim

bo'yicha turli to'garak va kurslar ko'paytirilib borildi. 1932-yili O'zbekiston zavod va fabrikalarida jami 642 to'garak faoliyat olib borib, ularda 20,9 ming ishchi shug'ullandi. Sovet davri hujjatlarida kadrlar tayyorlash rejasi ortig'i bilan bajarilganligi qayd etiladi, amalda ishchilar malakasini oshirish o'qitish yuzasidan trest boshliqlari va zavod direktorlari masalaga keraklicha e'tibor qaratmadi. Kadrlar o'quvsizligi uchun trest ma'muriyati shtatlari kadrlar bilan to'la ta'minlanmadi.

Markaziy shaharlardan O'zbekistonga yuborilgan ishchi va xizmatchilarga bir qator imtiyozlar belgilandi. Ularnig maoshlariga 10 foizlik ustama haq to'lanib, turar-joy, mehnat tatillari, oziq - ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashda ham imtiyozlar berildi. Markaziy xududlardan O'rta Osiyoga aholini ishga yuborishdan asosiy maqsad faqat iqtisodiy masalalar bilan bog'liq bo'lmay, balki o'ziga xos siyosiy maqsadlar ham mavjud edi. Xolbuki, O'zbekistonning o'zida malakali ishchilarni tayyorlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar keng miqyosda olib borilsa, bu sohaga sarflangan mablag' ancha tejalgan bo'lar edi. Markaziy shaharlardan kelgan aholi vakillari sanoatning muhim tarmoqlarida, yuqori haq to'lanadigan lavozimlarida ishladi. Sun'iy migratsiya stalincha ma'muriyat, ruslashtirish siyosatining muhim vositasi mahalliy millatlardan malakali ishchilar va muhandis-texnik xodimlar tayyorlashga to'siq qo'yishning o'ziga xos yo'li edi.

1938-yil O'zbekiston paxta fabrikalarida ishchilarni o'qitish ishining ahvoli tahlil etilganda, belgilangan rejaning bajarilmaganligi, nomigagina amalda rejaning 30-40 foizigina bajarilib, ishchilarni o'qitadigan va malakasini oshiradigan muassasalarning faoliyati qoniqarsiz holatda edi.

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida tikuvchilik fabrikalari ishchilarning malakaga ega bo'lmaganliklari tufayli ishlab chiqarish vazifalari faqat 62 foizga bajarildi. Masalan, 1938-yilda faoliyat yuritgan Qashqadaryodagi kadrlar tayyorlash rejasi misolida ishchilarning o'qitish holati tahlil etilganda ishchilarning yakka tartibda, shuningdek, ularning o'z sohalari bo'yicha malaka oshirish rejalari bajarilmagan, bu esa ishlab chiqarish vazifalari to'liq bajarilmasligiga sabab bo'ldi.

Sovet hokimiyatining qatag'onlari sanoat sohasini chetlab o'tmaganligi, xususan o'z respublikasining iqtisodiyot va sanoatini yuksaltirish uchun harakat qilgan o'nlab yosh mutaxassis kadrlari qatag'on qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Qatag'on qurbonlari orasida juda ko'plab sanoat sohasida faoliyat yuritgan, o'z respublikasining xalq xo'jaligi, iqtisodiyotini yuksaltirishga harakat qilgan Murod Nurillayev, Mirza Rahimov, Sattor Jabbor, Solih Muhammad, Maryam Sultonova singari yosh mutaxassis kadrlar "chet el josusi", "xalq dushmani" qabilida qatag'on qilingan. Milliy sanoatni yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasidagi milliy kadrlarning harakatlari qoralandi.

Sovet davrida jamiyatning boshqa a'zolari qatori hunarmandlarni ham siyosatga, texnikaga va mudofaaga oid turli to'garaklar va jamiyatlar bilan qamrab olishga harakat qilindi. 1938-yilda O'zbekiston hunarmandchilik kengashi tarmoqlarida 1237 ta ko'ngilli to'garaklar tashkil etildi. Ularda 22446 nafar hunarmand ishtirok etdi. Bu to'garaklarning aksariyati "siyosiy" to'garaklar edi. O'zbekiston hunarmandchilik ittifoqi o'z tasarrufidagi korxonalarni kadrlar bilan ta'minlash uchun maktablar, kurslar tashkil etdi. 1937 - yil bunday kurslarda reja bo'yicha 700 nafar ishchi tayyorlash rejalashtirilib, amalda 302 nafar, 1938-yil rejadagi 841 nafar ishchi o'rniga, 596 nafar ishchi tayyorlandi[9, 219].

Sanoat sohasining eng jiddiy muammolaridan biri oliy ma'lumotli muhandis-texnik kadrlar tanqisligi bo'ldi. 1921-yil Turkiston sanoatida jami 232 nafar mutaxassis ro'yxatga olinib, ulardan faqat 94 nafari oliy ma'lumotli edi. 1920-yili Turkiston Davlat universiteti ochilishi bilan qisman muhandis-texnik ziyolilarini tayyorlash imkoni ham tug'ildi. 1922-yili universitetning texnika fakultetining mexanika, muhandis-quruvchi, gidrotexnika hamda tog' bo'limlarida 436 nafar talaba tahsil oldi.

1929-yil O'rta Osiyo Davlat universitetining injener-melorativ va qishloq xo'jaligi fakulteti bazasida O'rta Osiyo paxtachilik-irrigatsiya politexnika instituti tashkil etildi. Shu yillarda O'rta Osiyo ipakchilik instituti ham tashkil etildi[1,302]. 1931-1932-yillarda temir yo'l transporti muhandislari instituti, To'qimachilik instituti

ochildi. 1934-yili esa O‘rta Osiyo industrial instituti tashkil etildi. Bu institutlar nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo respublikalarida muhandis-texnik kadrlar tayyorladi.

1933-yil O‘zbekistonda 69 ta texnikum, 30 ta ishchi fakultetlari, Toshkent va Samarqand shaharlarida ishchi universitetlari ochildi. 1929-yili O‘rta Osiyo respublikalarida jami 2418 nafar mutaxassis faoliyat olib borib, shuning 197 nafari oliy ma‘lumotli muhandis-texniklarni tashkil etdi. O‘zbekistondagi muhandis kadrlar Markaziy hududlarga nisbatan deyarli 4-marta kam edi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida oliy ma‘lumotli muhandis-texniklar 1930-1935 yillarda navjud emas edi [10,271].

Oliy ta‘lim talabalarini millat bo‘yicha tahlil etilganda, o‘zbeklar salmog‘i juda pastligi namoyon bo‘ladi. 1922-yil Turkiston Davlat universitetida jami 22 nafar o‘zbek millatiga mansub talaba tahsil oldi. 30 yillarda ularning salmog‘i ko‘tarilishi kuzatiladi. 1933-yil O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida 2290 nafar talaba tahsil olgan bo‘lsa, 1935-yilda ular 2939 nafarga ko‘paydi. Ammo bu jarayon hamma oliy ta‘lim muassasalarida bir xil ketmadi. Masalan 1923-yil O‘rta Osiyo davlat universitetining muhandis-texnika fakultetida 950 nafar talabalardan faqat 50 nafari mahalliy millatga mansub edi. Oliy ta‘lim talabalarini sun‘iy ravishda ishchi va dehqonlar hisobiga to‘ldirilishi, soha ishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

1925-1941-yillarda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati davrida ma‘lum bir ishlar bajarildi, natijalarga erishildi, lekin qo‘pol xatoliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Insonlar ehtiyoji va hayot taraqqiyoti qoidalari bilan hisoblashmasdan o‘zboshimchalik va ma‘muriy –buyruqbozlik usuli bilan ish tutish industrilashtirish sohasida uni amalga oshirish vositalarini qo‘llash, sanoat ishchilarining moddiy manfaatdorligi, talab-ehtiyojlarini hisobga olish bobida jiddiy nuqson va buzilishlarga yo‘l qo‘yildi.

Stalinning 1929-yil 7-noyabrda e‘lon qilingan “Buyuk burilish yili” nomli maqolasi ijtimoiy hayot jarayonlariga o‘zboshimchalik, subyektivistik usulda yondoshishning klassik namunasi bo‘ldi. U sanoatning muhim tarmoqlarini besh yillik asosida rivojlanish ko‘rsatgichlariga o‘zboshimchalik bilan “tuzatishlar” kiritdi.

“Dohiy”ning bu tuzatishlari natijasida hatto rejada ko‘zda tutilgan ishlar ham amalga oshmadi. 1931-1933-yillarda sanoatning o‘shish sur‘atlari pasayib, 1928-1929-yillardagi 23,7 foiz o‘rniga atigi 5 foizni tashkil etdi. Bunday salbiy holatlar O‘zbekiston SSR sanoatiga ham tegishlidir. Qator korxonalarining ishga tushirilish muddatlari cho‘zilib ketdi [11, 106].

O‘zbekistonda 30-yillarda ham sanoat qurilishi sur‘atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiya davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotida mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvi yanada kuchaytirildi. Shuningdek, to‘qimachilik, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish vazifalari qo‘yildi. O‘zbekistondagi sanoat korxonalari asosan Markaz manfaatlariga muvofiq tashkil etilib, mintaqa aholisi uchun zarur bo‘lgan zavod va fabrikalar qurish masalasi hech kimni qiziqitirmadi.

Sovet davlati hokimiyatining dastlabki yillarida sanoat sohasi kadrlarini tayyorlash masalasi eng muammoli vazifalardan biri hisoblandi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq sanoat korxonalari soni ortib borishi natijasida ularni kadrlar bilan ta‘minlashda qiyinchiliklarga duch kelindi. Ayniqsa, kadrlar orasida mahalliy millat vakillari kamchilik edi. Bu esa Rossiyadan sanoat kadrlarining O‘rta Osiyo sanoat korxonalariga oqib kelishiga keng yo‘l ochdi. Muhandis-texnik ziyolilar orasida mahalliy millat vakillari bor yo‘g‘i 1 foizni tashkil etdi

Ayrim xorijlik tadqiqotchilar tomonidan SSSRda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatiga ijobiy baho berilib, sanoat ishlab chiqarishning mutlaq hajmlari bo‘yicha XX asrning 30-yillari oxirida SSSR dunyoda AQShdan keyin 2-o‘rinni egallaganligi ta‘kidlanadi. SSSRda sanoat texnologiyasi yaratilishi mumkinligi, shuningdek, G‘arbdan farqli o‘laroq SSSRda bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati yo‘q edi [12, 188-194].

V.Lelchuk “SSSRni sanoatlashtirish: tarixi, tajribasi, muammolari” nomli risolasida SSSRdagi sanoatlashtirish jarayoniga yuqori baho berib, quyidagi fikrlarni bildiradi:

1.SSSRda sanoat o‘zgarishi ikkinchi darajali xarakterga ega edi. Rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kechroq amalga oshirilganligi sababli, yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan korxonalarda chetdan eksport qilinadigan asbob - uskunalar va texnologiyalar, shuningdek, mehnatni tashkil etish usullari qo‘llanilgan.

2. ishlab chiqarishning sanoat turi dastlab iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida shakllanishi mumkin. Sanoatlashtirishda og‘ir va mudofaa sanoatining ustuvor rivojlanishiga e‘tibor qaratildi.

3. sanoat texnologiyasi yollanma mehnatdan ortiqcha qiymat olish uchun yaratilgan va kapitalistik ekspluatatsiya vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Stalinistik model, asosan, sotsialistik bayroq ostida dastlabki sanoat kapitalizmini qayta ishlab chiqardi.

Xullas, O‘zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi davom ettirilib, respublika iqtisodiyotining sobiq Ittifoqning asosiy paxta bazasi sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda O‘zbekiston xalq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog‘i yildan yilga oshib borgan bo‘lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo‘lib, u turdagi korxonalarining salmog‘i barcha sanoat korxonalarining 90% ni tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Sherozovich, M. B. (2024). CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF TRAINING INDUSTRY PERSONNEL IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1925-1950). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(5), 221-225.

2.Sherozovich, M. B. (2024). DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS

AND CONSEQUENCES (1930-1960). *Modern education and development*, 16(5), 267-277.

3. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yy). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

4. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 158-161).

5. Асадова, Р. (2024). O 'zbekiston va Hindiston o 'rtasida savdo va ilmiy-texnik hamkorlik. *Общество и инновации*, 5(5), 227-231.

6. Асадова, Р. Б. (2021). ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ИНДИИ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 18, 43-47.

7. Boymanovna, A. R. (2024). HISTORICAL BASIS OF COOPERATION BETWEEN THE STATES OF UZBEKISTAN AND INDIA. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 2(3), 62-67.

8. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO'ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 6(2), 86-94.

9. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.

10. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.

11. Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Modern education and development*, 16(5), 216-226.

12.Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.

13.Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.

14.Ergashev, U. K. (2024). SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN GUZOR PROVINCE. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(5), 157-162.

15.Ergashev, U. K. (2024). THE BUKHARA EMIRATE: A HISTORICAL OVERVIEW. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(12), 131-135.

16.Kuziyevich, E. U. (2024). GUZOR FORT IN THE PERIOD OF BUKHARA EMIRATE. *European Science Methodical Journal*, 2(5), 192-198.

17.Nilufar, E. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA YIRIK SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Modern education and development*, 16(5), 250-259.

18.Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.

19.Nilufar, E. (2024). О 'ЗБЕКИСТОН САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК БЕЗНИС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК МЕХАНИЗМНИНГ ЯРАТИЛИШИ (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA). *Научный Импульс*, 3(26), 275-279.

20.Ochilova, N. R. (2022). CURRENT STATUS OF UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(12), 255-258.

21.Ruzimuratovna, O. N. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE AND CREATIVE POTENTIAL. *International journal of artificial intelligence*, 4(03), 442-443.

22. Ruzimuratovna, O. N. (2022). WAYS TO ABSORB THE NATIONAL IDEA IN THE YOUTH MIND. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 122-124.

23. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 304-309.

24. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. The Peerian Journal, 25, 11-16.

25. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.

26. Qurbonova, M. U. B. (2022). HUQUQIY VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING ASOSIY BO‘G‘INI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 342-346.

27. Qurbonova, M. U. (2024). XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI IJTIMOIIY ROLINING O‘ZGARISHI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 21-24.

28. Boltayevna, Q. M. U. (2021). GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIK MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 104-110.

29. Ochilova, N. R., Elboeva, S. B., & Buriev, I. I. (2021). ISSUES OF FORMATION OF UNIVERSAL VALUES IN THE DEVILMENT OF NATIONAL CULTURAL CENTERS. Scientific progress, 2(2), 496-500.

30. Ochilova, N. R. (2023). Typology of civilizations. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 121-127.

31. MAMATQULOV, B. (2024). O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). News of the NUUZ, 1(1.2. 1).

32. Sherozovich, M. B. (2025). О ‘ZBEKISTONDA XX ASRNING 30-40 YILLARDA SANOAT ISHCHILARI TARKIBINI SHAKLLANTIRISH VA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 63(4), 490-502.

33. Маматкулов, Б. (2024). Развитие сетей легкой промышленности в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области, процессы формирования кадров (1925-1950 гг.). Общество и инновации, 5(5), 211-218.

34. Sherozovich, M. B. (2025). О ‘ZBEKISTONDA XX ASRNING 30-40 YILLARDA SANOAT ISHCHILARI TARKIBINI SHAKLLANTIRISH VA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 63(4), 490-502.